



## O'QUVCHILARDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Islomova Malikabonus Nizom qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining yozma nutqini, yozma savodxonligini, rivojlantirish yo'llari va usullari haqida fikr yuritiladi. Yozma ishlarning – diktant, insho, esse kabi yozma ish turlarining o'quvchilar yozma nutqida qanday ahamiyatga egaligini maqolamizda ko'rib chiqamiz. O'quvchilar yozma nutqini o'stirishda o'qituvchi, pedagoglar nimalarga e'tibor berishi kerakligi haqida maqolada to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, yozma nutq, yozma savodxonlik, metod, yozma ish, imlo, diktant, bayon, insho, esse.

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limga oid ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda darslik, ulardagi mavzulashtirishlarga ham ko'plab o'zgartirishlar kiritildi va kiritilmoqda. Shu jumladan , “Ona tili” fanida ham turli yangiliklar amalga oshirildi. Darsliklar o'quvchilar uchun yanada qiziq shaklda chiqa boshladi. Yoshlarning fikrlashi yetuk avlod bo'lib voyaga yetishida , yozma nutqini, yozma savodxonlik darajasini oshirishda “Ona tili” fani asosiy o'rinnegallaydi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Ona tili ta'limining oldiga qo'yilgan maqsad o'quvchilarni shaxsiy, tanqidiy fikrlashga, boshqalar fikrini tushunib yetish va uni tahlil qilishga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda tushunarli tarzda bayon qila olishga, so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga o'rgatishdan iborat.

DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

- O'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

- Moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr-o'ylari va his-tuyg'ularini ona tili imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bugungi davr yosolarida mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. O'quvchining o'quv ma'lumotlarini qabul qilishi murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylig va alohidilikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo'llash bilan bog'liqdir. O'quvchi jarayonni kuzata olishi, izlanishi, uni boshqa vaziyat bilan qiyoslay olishi, vaziyat bo'yicha hukm chiqara olishi va uni qo'llashni bilishi

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



darkor. O‘quvchida ushbu ko‘nikmalar shakllansa, uning yozma nutqida, nafaqat yozma nutq, og‘zaki nutqida ham sezilarli darajada o‘sishni ko‘ramiz.

Mustaqil fikrlashning va ijodiy tafakkurning eng samarali k o‘rinishi matn yaratishdir.

Fikrni yozma shaklda bayon etish masalasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi ushbu bosqichda mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma, bilim va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. O‘quvchi yaratgan matn orqali,u vaziyatni qay darajada tushunganini, qay darajada tahlilga torta olganini, anglaganini, qanday yechim bergenini bilib olamiz.

Davlat ta’lim standartida qo‘yilgan talablarda ham ko‘rishimiz mumkinki, o‘quvchilarda vaziyatni va jarayonni tushungan va tahlil qila olgan holda, o‘z fikrlarini yozma shaklda mazmunli, aniq bayon etish ko‘nikmasini hosil qilish ona tili ta’limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot o‘quv fanlari sifatida nutq imkoniyatlarini birlashtirib, o‘quvchining yozma va og‘zaki fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. O‘quvchini tilimizning boy olamiga olib kiradi, tilimizning naqadar go‘zal, jimmador so‘zlarga to‘laligini va ularni qo‘llay olishni o‘rgatishni o‘zida mujassam etadi.

Ma’lumki, yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. U kommunikativ jarayonda bevosa ishtirot etmaydi. Agar og‘zaki nutqda jumla yoki so‘zlarning to‘liq ifodalanmasligi, ayrim qo‘shimchalarning tushirib qoldirilishi, almashinishi singari holatlar yuz berishi mumkin bo‘lsa, yozma nutqda fikr ifodalashda mantiqiy izchillik so‘z va iboralarning tizimliliqi taqozo etiladi.

O‘quvchi yozma nutqini takomillashtirishning keng tarqalgan usuli turli xil mavzularda bayon,insho va esselar yozdirishdir. O‘quvchilarning, boshqa turdagи mustaqil ishlari, yozma bajariladigan uy vazifalari ham o‘quvchilar yozma nutqining riwojlanishiga ko‘maklashadi.<sup>86</sup>

Yozma nutq ustida ishslash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki yozma nutq o‘quvchidan mazmunan va grammatik jihatidan to‘g‘ri jumla tuzishni, har bir so‘zdan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanishni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, qulay va oson, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, keltirilgan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turning murakkabligi ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub tabiatiga muvofiq bayon qilish yozma nutqqa qo‘yiladigan talablardan hisoblanadi.

O‘quvchilarning yozma nutq malakasini shakllantirish:

- Husnixat;
- Yozma nazorat ishlari (diktant, bayon, insho, esse);
- Grammatik qurilmalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish;
- Mavzu hamda rasmlar asosida yozma matn tuzish;

<sup>86</sup> [Qodirova.S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Bog‘lanishli nutq . Og‘zaki hikoya va yozma insho. 103-bet. ‘Kamolot’ nashriyoti. Buxoro-2022.]



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Ta'limiy o'yinlar;
- Turli mashqlarni bajartirish.<sup>87</sup>

### MUHOKAMA

O'quvchilarda yozma nutqni shakllantirishda yozma ishlarning o'rni kattadir. Berilayotgan yozma ish mavzusining o'quvchi yoshiga mosligini ham inobatga olish kerak. Ushbu beriladigan yozma ishlar orqali, nafaqat yozma ishlar berilayotgan mashqlar va topshiriqlar o'quvchilarda kasbga qiziqish, jamiyatga qiziqish hissini ortttiradi, shakllantiradi. Bu esa ona tili va adabiyot o'qituvchilarining oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shu o'rinda qaysi yozma ish turlari o'quvchilarda yozma nutqni qanday rivojlantirishini ko'rib chiqamiz.

Diktant – o'quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarni o'rgatishda hamda bu qoidalalar yuzasidan hosil qilingan malakani tekshirishda qo'llaniladigan yozma ish turi.<sup>88</sup> Yozma nutq ko'nikmasi o'quvchilarda yaxshi shakllanishi uchun diktantlar ham muhim ro'l o'ynaydi. Diktantlar o'quvchilarda imlo va punktuatsiyani shakllantirishi bilan birga, axborotni qabul qilish va uni qo'llash ko'nikmasini ham rivojlantiradi. O'quvchi yoshiga mos va qiziqarli yoki faktlarga asoslangan, yangi axborot bera oladigan diktantlardan foydalanilsa, o'quvchi diktantni eshitish orqali yangi ma'lumotga ega bo'ladilar va boshqa o'rnlarda ham qo'llay oladilar. Aytaylik, insho, bayon yoki esse yozganda qo'llaydilar. Ushbu jarayonda o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmasi rivojlanmay qolmaydi. Shuning uchun diktant matni tanlaganda, o'quvchilar uchun foydali va manfaatli bo'ladigan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bayon – voqeа, hodisa, fikr, mulohaza va shu kabilarning og'zaki yoki yozma ifodasi, matnni o'qib yoki aytib berilganlar asosida yozib chiqilgan ish. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fikrlashini, yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha sinf va o'quv ishining asosiy turlaridan biri sifatida foydalaniladi.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir. O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va u asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritib boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo'shiladi; keyinroq shaxsini o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi.<sup>89</sup> Bayonlar orqali o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmasi shakllanadi, rivojlanadi. Vaziyat yuzasidan tanqidiy va tahliliy fikrlaydi va tadbiq etadi. O'quvchilar yoshiga mos bo'lgan hikoya

<sup>87</sup> [Muxtorova.Sh. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati Academic Research in Educational Sciences.2022]

<sup>88</sup> [O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.]

<sup>89</sup> [Kabulov.I. Bayon ishlarning metodik tavsifi va ta'limdag'i o'rni.

Eurasian Journal of Academic Research 2024]

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



tanlansa va u asosida bayon yozish topshirig'i berilsa, o'quvchilarda yozma nutq kompetensiyasi rivojlanadi.

Insho – muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir.

Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi. Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqeа-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorgarlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir.<sup>[90]</sup> O'quvchilarda insho yozish orqali fikrlash, ijodiylik, yozma nutq malakasi rivojlanib boradi. Insho yozish jarayoni o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. Bu jarayonda o'quvchining qanchalik ko'p mutolaa qilganini, izohli lug'atlar bilan qanchalik tanishganini, ma'nodosh so'zlardan qay darajada foydalana olishini ko'ramiz.


Esse – muayyan bir mavzu yuzasidan o'quvchining shaxsiy fikri, munosabati va tahlillarini ifodalovchi nasriy matndir. Esse odatda muallifning o'ziga xos nuqtai nazarini, ichki kechinmalarini va qarashlarini bayon etadi. U ilmiy maqoladek qat'iy tartibga ega emas, lekin mantiqiy izchillik va aniq fikr ifodasini talab qiladi. Esse yozish orqali o'quvchilarda vaziyatga baho berish, uni tahlil qilish, yechim berish, yozma nutq va yozma savodxonlik rivojlanadi, yuksaladi.

D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqovalar tomonidan yaratilgan "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi" nomli metodik qo'llanmada esse metodiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchilar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkoninini beradi. Kichik essenii yaratishda o'quvchilar mavzu g'oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladi."<sup>[91]</sup>

O'quvchilarda yoshini inobatga olgan holda rasm asosida matn yoki boshqa yozma ish turlari topshiriq sifatida berilsa, darslarda yozma nutqni rivojlantiruvchi turli xil

<sup>90</sup> [Muxtorova.Sh. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati Academic Research in Educational Sciences.2022]

<sup>91</sup> [Islomova . F. Esse turlari va ularni tashkil etishning o'ziga xos xusussiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2024]



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



metodlardan foydalanilsa, kichik guruhlarda ushbu metodlar asosida ishlansa, o'quvchilarda yozma nutq, yozma savodxonlik bilan birgalikda, jamoaviy ishslash, vaziyat yuzasidan hukm chiqarish, boshqalarning fikrini tahlil qila olish ko'nikmalari ham shakllanadi.

Shu bilan birga o'quvchilarga munozarali mavzular o'rtaqa tashlangan holda, ushbu vaziyat asosida esselar yozdirilsa, o'quvchilarda yozma nutq o'sishini ko'rib boramiz. Bugungi davr yoshlari bir yerda to'xtab turgani yo'q, turli tillarni o'rganishmoqda. Chet tillari o'rganishda ham yozma nutqiy kompetensiya ham muhim o'rinni tutadi. O'quvchilarda maktab davridanoq muammoli, munozarali vaziyatlar asosida esselar yozdirib borilsa, ularda chet tillarini o'rganish jarayoni osonlashadi.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, bugungi davr o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish muhim masala sifatida qaralayotgan ekan, demak biz ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'quvchilarda ushbu ko'nikmani shakllantirish va rivojlantirish uchun eng samarali usullardan foydalanishimiz darkordir. Shundagina ko'zlangan maqsadga erisha olamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Muxtorova.Sh. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati Academic Research in Educational Sciences 2022
- 2.Qodirova.S. Ona tili o'qitish metodikasi. Bog'lanishli nutq . Og'zaki hikoya va yozma insho. 103-bet. "Kamolot" nashriyoti. Buxoro-2022.
- 3.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 4.Kabulov.I. Bayon ishlarining metodik tavsifi va ta'limdagi o'rni. Eurasian Journal of Academic Research 2024
- 5.Islomova . F. Esse turlari va ularni tashkil etishning o'ziga xos xusussiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2024

